

**PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR, PROFESSIONAL TA'LIM BOSHQARUV
HAMDA PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

AZIZOV OBID ERGASHJANOVICH

**PEDAGOGIKA KOLLEJLARI O'QUVCHILARINING
KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI INNOVATSION
YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy
(PhD) on pedagogical sciences**

Azizov Obid Ergashjanovich

Pedagogika kollejlari o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish.....3

Азизов Обид Эргашжанович

Развитие коммуникативной компетенции учащихся педагогических колледжей на основе инновационного подхода.....21

Azizov Obid Ergashjanovich

Development of communicative competence of students in pedagogical colleges on the basis of an innovative approach.....41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR, PROFESSIONAL TA'LIM BOSHQARUV
HAMDA PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

AZIZOV OBID ERGASHJANOVICH

**PEDAGOGIKA KOLLEJLARI O'QUVCHILARINING
KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI INNOVATSION
YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Ped2348 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax politexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.ipitvet.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Olimov Qahramon Tanzilovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ximmataliyev Do'stnazar Omonovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Alimov Normurod Nosirovich
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «__» __soat__dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy. Tel.: (+99871) 246-92-17, faks: (+99871) 246-90-37, e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100095, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy. Tel.: (+99871) 246-92-17, faks: (+99871) 246-92-17).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «__» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

R.X. Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, p.f.d., akademik

S.Yu. Ashurova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, p.f.n., professor

X.Sh. Kadirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d.,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy sohalarda olib borilayotgan global o'zgarishlar kadrlar tayyorlash tizimi kompetensiyaviy talablar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Yevropa Kengashining Berndagi "Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar" (Key competencies for Europe) xalqaro simpoziumida ta'lim oluvchilarning "aniq vaziyatlarda muloqot va yozma ko'nikmalardan samarali foydalanish" hamda "og'zaki va yozma muloqotni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan, ayniqsa, ish va ijtimoiy hayot uchun muhim bo'lgan, ularni o'zlashtirmagan odamlarning ijtimoiy chetlanish xavfi ostida ekanliklariga urg'u berilgan. Muloqotning xuddi shu kontekstida bir nechta tillarni o'zlashtirish" kabi muhim kompetensiyalar guruhi qabul qilingan. Bugungi kunda bo'lajak mutaxassislarning muhim kompetensiyalarini shakllantirish va baholashda o'qitishning an'anaviy va innovatsion usullaridan majmuaviy foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ta'lim oluvchilarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirish borasidagi muammolarga amaliy yechimlar topish dolzarbligacha qolmoqda.

Xalqaro ilg'or tajribalarga asosan, AQSH, Angliya, Germaniya, Rossiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlarida kasb-hunar ta'limi jarayonini innovatsion yondashuv asosida loyihalashni amalga oshirishning ilmiy asoslangan metodik tizimini yaratish borasida salmoqli amaliy natijalarga erishilgan. Shunga ko'ra, raqobatbardosh va malakali bitiruvchilarni tayyorlashda amaldagi ta'lim paradigmasini o'zgartirish va o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan o'quvchilarning kelajakdagi faoliyatlarida kasbiy muammolarga yechim topish va amalga tatbiq etishda kommunikativ kompetensiyasini oshirish muhim o'rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan faol ijodiy fikrlovchi, izlanuvchan, kerakli axborotlarni mustaqil ravishda izlab topuvchi va ularni o'z amaliy faoliyatida qo'llay oluvchi mutaxassislarni tayyorlash tizimini samarali tashkil etishda nutq madaniyatining shakllanganligi ularning kommunikativ kompetensiyasiga alohida e'tibor qaratish zarur hisoblanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo'nalishi mustaqil fikr yurita oladigan, kasbiy kompetensiyalarga ega raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Shu bois, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur bo'ladigan rivojlanish istiqbollari aniq belgilash borasida "Ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish" ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda¹. Bu esa pedagogika kollejarida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash va uning innovatsion pedagogik asoslarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Innovatsion yondashuvga asoslangan o'qitish metodikasida mutaxassislar tayyorlash jarayoni loyihasini, uning mazmunini, texnologik tuzilmasi va mavjud sharoitlarini o'quvchi shaxsiga, uning bilish faolligi va ijodiy faoliyatiga yo'naltirish muhim sanaladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-sonli “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari va 2020-yil 31-dekabrda “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4939-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi VM-466-sonli “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta‘lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi: O‘tkazilgan ilmiy izlanishlar hamda tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasb-hunar ta‘limi nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha respublikamizda R.X. Djo‘rayev, Sh.E. Qurbonov, A.R.Xodjabayev, X.F.Rashidov, U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, Q.T. Olimov, Z.K.Ismailova, M.B.Urazova, J.A. Hamidov, O.X. To‘raqulov, D.O. Ximmataliyev, Sh.S. Sharipov, O.A. Qo‘ysinov, Z. To‘xtayeva, Z. Chorshanbiyev kabi olimlar, maktabgacha ta‘lim muassasalari faoliyatini hamda bo‘ljak mutaxassislarining nutqini o‘stirib borish muammolari va pedagogik-psixologik tomonlarini rivojlantirish bo‘yicha F.R.Qodirova, P. Yusupova, M.T.Mirsoliyeva, N.Abdullayeva, D. Abduraximova, Z.Azizova, Sh. Shodmonova, T. Xurvaliyeva, G.Ibragimova, M. Berdiyeva, R.Sunnatova, Sh. Nuraliyeva, Q. Husanboyeva, G.Berdaliyeva, M. Xushnazarovalar, kasbiy faoliyatda “kompetensiya”, “kompetentlik”, “tayanch kompetensiyalar” va “kommunikativ kompetensiya” kabi tushunchalarning mazmun va mohiyatini o‘rganish hamda tadqiq qilish, shakllantirish, rivojlantirish va tashxislash masalalarida mamlakatimizda N.A.Muslimov, O.A. Qo‘ysinov, A.X. Maxmudov, J.R. Turmatov, U. Mingboyev, G.N. Ibragimova, X. Yulbarsova, N. Karimova, N.Xusanov, Z.T.Raximov, S.Sh.Sharipova kabi olimlarning fundamental ilmiy tadqiqot ishlarida atroflicha o‘rganilgan.

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari bo‘yicha MDH mamlakatlari olimlaridan S. Lebedeva, N. Mixaylenko, N.Poddyakov, I.G. Agapov, S.Ye. Shishov, I.A. Zimnaya, A.V. Xutorskoy, S.I.Ojegov, G.M. Kodjaspirova, S.G. Zaymovskiy, D.N. Ushakov, M.A. Choshanov, Dj. Raven, O.A. Salnikova, N.F. Yefremova, O.B. Sirotinina va boshqalarning ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Xorijiy mamlakat olimlaridan C.R. Berger, W. Grabe, J. Harmer, C. Leung J.C.Richards, J. Hartig, E. Klieme, P. Heinrich, Hutmacher Walo va boshqalar tadqiqot olib borgan.

O'rganish natijalari tahlilidan ko'rinadiki, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalasi bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa-da, pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik-psixologik va didaktik imkoniyatlarini aniqlash kabi muammolarni yetarlicha tadqiq etilmaganligi mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishi Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "AIF 1/4 – Kasb-hunarga yo'naltirilgan markaz va elektronika bo'yicha qo'shma o'quv laboratoriya yaratish" (2019-2021-yy.) mavzusidagi xalqaro amaliy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi. Pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik, uslubiy-didaktik shart-sharoitlarini hamda axborot-metodik ta'minoti imkoniyatlarini aniqlashtirish;

pedagogika kolleji o'quvchilari kommunikativ kompetensiyasini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning mantiqiy-funksional tuzulmasiga asoslangan tuzilmaviy-metodik modelini takomillashtirish;

innovatsion yondashuv asosida pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini kasbiy rivojlanishga imkon beruvchi elektron o'quv kursini ishlab chiqish asosida takomillashtirish;

pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini innovatsion yondashuv asosida rivojlanganlik darajalarini baholash mezonlarini aniqlash hamda amalda joriy etish.

Tadqiqot obyekti. Pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti. Pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning mazmuni, shakllari va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida mavzuga oid pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlar, ilmiy manbalar, o'quv-me'yoriy hujjatlar, o'quv reja va dasturlarni qiyosiy o'rganish va tahlil qilish, kuzatuv, suhbat, test, o'z-o'zini baholash so'rovi, pedagogik tajriba-sinov, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik, uslubiy-didaktik shart-sharoitlari kommunikativ-nutqiy faoliyatga tayyorlashning metodologik yondashuvlari va didaktik tamoyillarini shakllantirish, kasbiy ta'lim sifatini oshiruvchi axborotli-kommunikatsion mobil muhitni tashkillashtirish hamda o'quv jarayonining axborot-metodik ta'minotini mazmunan takomillashtirish asosida aniqlashtirilgan;

pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning mantiqiy-funksional tuzilmasiga asoslangan tuzilmaviy-metodik

modeli maqsad, mazmuniy, jarayoniy, baholovchi-natijaviy bosqichlarda kasbiy mobillikni va pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlashga ustuvorlik beruvchi pedagogik strategiyani ishlab chiqish hamda kasbiy ta'lim sub'ektlarining telekommunikatsion o'zaro ta'sir klasterini umumlashtirish asosida takomillashtirilgan;

pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini gnostik, aksiologik, interaktiv va empirik komponentlarini innovatsion yondashuv orqali rivojlantirish metodikasi kommunikativ-nutqiy faoliyatni olib boruvchi ijtimoiy tarmoqlararo mobil muhitni tashkil etish, universal kommunikativ harakatlarni amalga oshirishning muloqotli kombinatsiyasini shakllantirish hamda mustaqil kasbiy rivojlanishga imkon beruvchi elektron o'quv kursini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan;

professional ta'limda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini gnostik, aksiologik, interaktiv va empirik komponentlarini rivojlanganligining reproduktiv, produktiv va ijodiy darajalarini baholashning kognitiv, faoliyatli, kreativ mezonlari ishlab chiqarish va professional ta'limning tarmoq o'zaro hamkorlikda professional sifatlarni shakllanishini ta'minlash hamda miqdoriy mezon ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymat ishonch oralig'ini aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga mo'ljallangan "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" fanidan o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan va nashr ettirilgan;

pedagogika kollejlarning namunaviy o'quv rejasidagi maxsus fanlar blokiga kiruvchi "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodlari" fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan axborot-didaktik ta'minot, mashqlar va ijodiy topshiriqlarni o'z ichiga olgan o'quv-uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

Intellektual mulk agentligidan kommunikativ kompetensiya texnologiyalariga oid dasturlar va elektron ma'lumotlar bazalari uchun bitta mualliflik guvohnomasi olingan;

pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus kurs o'quv dasturi ishlab chiqilgan va amalda joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik tahliliga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif qilingan innovatsion yondashuv asosida ilg'or metodlar va rivojlantiruvchi treninglar orqali o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirish imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlari asoslanganligi, pedagogik model ishlab chiqilganligi hamda pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, pedagogika kollejlari o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha maxsus o'quv kurslari va treninglar o'quv rejaları va axborot metodik ta'minoti hamda elektron ta'lim resurslari ishlab chiqilganligi hamda "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" o'quv qo'llanmasi yaratilganligi va amalda joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Pedagogika kollejlari o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar va ishlab chiqilgan takliflar asosida:

pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik, pedagogik-psixologik, uslubiy-didaktik shart-sharoitlari kommunikativ-nutqiy faoliyatga tayyorlashning metodologik yondashuvlari va didaktik tamoyillarini shakllantirish, kasbiy ta'lim sifatini oshiruvchi axborotli-kommunikatsion mobil muhitni tashkillashtirish hamda o'quv jarayonining axborot-metodik ta'minotini mazmunan takomillashtirish asosida aniqlashtirishga doir takliflar "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 18-oktabrdagi 89-05-134-son—ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan o'quv qo'llanma pedagogika kolleji o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilgan;

pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning mantiqiy-funksional tuzilmasiga asoslangan tuzilmaviy-metodik modeli maqsad, mazmuniy, jarayoniy, baholovchi-natijaviy bosqichlarda kasbiy mobillikni va pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlashga ustuvorlik beruvchi pedagogik strategiyani ishlab chiqish hamda kasbiy ta'lim sub'ektlarining telekommunikatsion o'zaro ta'sir klasterini umumlashtirish asosida takomillashtirishga doir takliflardan "Talabalarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixolog xususiyatlari" (2017-2021)" nomli ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 18-oktabrdagi 89-05-134-son ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan tuzilmaviy-metodik model pedagogika kollejlari o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilgan;

pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini gnostik, aksiologik, interaktiv va empirik komponentlarini innovatsion yondashuv orqali rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlanganligining reproduktiv, produktiv va ijodiy darajalarini baholashning kognitiv, faoliyatli, kreativ mezonlarini takomillashtirishga doir takliflar "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" o'quv qo'llanmasi, treninglar va mashqlar joylashtirilgan va "Topshiriqlar", "Nazariy materiallar", "Tavsiyalar" va "Baholash jurnali" modullari mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 18-oktabrdagi 89-05-134-son ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan metodik modullar pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro

va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan bitta o'quv qo'llanma, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 6 ta maqola, (4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarida) nashr qilingan. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining (№DGU 18707) guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida pedagogika kollejlari o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar hamda pedagogik shart-sharoitlari haqida fikr yuritilgan.

Pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini o'rganish bo'yicha xorijiy hamda mamlakatimiz olimlarining tadqiqot ishlari va amaldagi malakaviy tavsifda aks ettirilgan mutaxassislariga qo'yiladigan malakaviy talablar tahlil qilindi.

Olib borilgan tajriba-sinov ishlarining ta'kidlovchi bosqichida professional ta'limning o'rta darajasidagi pedagogika kollejlari o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasida uchrab turadigan quyidagi muammo va kamchiliklar aniqlandi: o'quvchilarda nutq texnikasining yetishmasligi; adabiy til me'yorlariga rioya etish bo'yicha malakalarning rivojlanmaganligi; fikrini to'g'ri yetkazib bera olmaslik (fonetik-orfoepik, leksik-semantik va grammatik me'yorlari talablariga mos kelmaslik); muloqotga kirishish jarayonida ortiqcha iboralar: jumladan, masalan, demak, nihoyat, xo'sh, demoqchimanki, aytaylik, haligi kabi so'zlarning takror ishlatilishi; nutq jarayonida shevadagi so'zlardan foydalanishi; muloqot jarayonida aniqlikning yetishmasligi: so'z ma'nosiga yetarli e'tibor bermaslik; paronim so'zlardan foydalanishda e'tiborsizlik; muloqotga kirishishda so'zni o'z o'rniga qo'yib yetkazib bera olmaslik, gap tartibining buzilishi; so'zning noo'rin tanlanishi; o'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari (varvarizmlar); dag'al, haqorat so'z va iboralar (vulgarizmlar)dan foydalanish; guruhning oldida o'zining nutqini yetkazib bera olishdan tortinish hissi; yetkazib bermoqchi bo'lgan fikrlarida ikkilanishlarga

ko'p duch kelish; muloqot qilish jarayonida muomala etikasiga rioya qilmasligi; bir-birini eshitish texnikasining yetishmasligi; ijodiy usullarni kommunikativ faoliyatda qo'llay olmaslik; ikkala tomonga ham yo'naltirilgan shaxsiy qadriyatlar (javobgarlik, tushunish va hurmat qilish qobiliyati)ning rivojlanmaganligi; muloqot to'siqlarini yengib o'tishda irodaning sustligi; muloqotda o'z-o'zini boshqarish va nazorat qilishning yetishmasligi kabilar.

Bizning tadqiqotimiz yuqoridagi muammo va kamchiliklarni muayyan darajada hal qilishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga harakat qildik.

Fikrimizcha, kommunikativ kompetensiya – bu o'quvchilarda o'zaro muloqot doirasi va qabul qila olish san'atini, nutq faoliyatini hamda fikrlarni bayon qilish fazilatlarining shakllanishi, o'zi va o'zgalarni tinglashi hamda tushunishga bo'lgan reaksiyalari yig'indisining namoyon bo'lishidir.

O'tkazilgan nazariy izlanishlar asosida ishlab chiqilgan o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish tuzilmasida o'quvchilar qiziqish va intilishlarini inobatga olingan gnostik, aksiologik, interaktiv va empirik komponentlariga ta'sir ko'rsatadigan metodlardan foydalanish samarali natijalarga olib kelishi asoslangan.

O'quvchilarni yangilikka intilish hissini uyg'otish, mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, o'qishning dastlabki yillaridanoq erkin muloqot qila olish kompetensiyasini shakllantirish keyingi bosqichlarida pedagogik-psixologik turkum fanlarini o'qitish bo'yicha innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni, yangiliklarni mustaqil holda izlab topish, kerakli axborotni tanlab olish, saralash va amalga joriy etish ko'nikmasini shakllantirish lozim bo'ladi.

Muloqotning tashabbuskori sifatida o'qituvchi turli xil kommunikativ maqsadlarga erishish uchun og'zaki nutqqa xos bo'lgan turli xil nutq texnikasidan foydalanadi. O'quvchilarda ma'lumotni aniqroq yetkazishga qaratilgan nutq texnikasi muhim hisoblanadi.

Ta'lim oluvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha to'plangan tajribalarni o'rganish asosida biz tomondan pedagogika kollejlari o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning quyidagi pedagogik shart-sharoitlar aniqlashtirildi:

o'quv rejalarida fanlarni o'qitish uchun yaratiladigan ta'lim sharoitini o'z ichiga olgan o'zaro ta'sirlashuv asosida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ma'lumotlar muhitini yaratish;

pedagogika kollejlari o'quvchilari o'zaro munosabatlarda muloqotning nutq shakllaridan to'g'ri foydalana olishlari uchun kommunikativ kompetensiyalarning rivojlantirish qobiliyatini egallaganligini rag'batlantirish;

kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda turli xil axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini oshirish;


o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro munosabatning turli ko'rinishlarini tashkil etish;

interaktiv metodlar hamda treninglardan foydalanish orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun mo'ljallangan o'quv jarayonining axborot metodik ta'minotini yaratish;

innovatsion yondashuv asosida o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishni ta'minlovchi o'quv muammolar asosida kommunikativ vaziyatlarni yaratish sharoiti.

Ushbu sharoitlarda o'quvchilarini nutq boyligiga ega bo'lish, til bilish darajasini oshirib borish, ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qila olish va undan keraklisini ajratib olish va foydalanishni o'rgatish kerak. Shu bilan birgalikda o'zlashtirilgan bilimlardan kundalik faoliyatda duch keladigan muammolarni hal etishda foydalana olishlari uchun o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Bu vazifalarni hal etish uchun esa pedagogika kolleji o'quvchilari o'quv predmetlarini o'rganish jarayonida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish bilan birgalikda ularni hayotiy ehtiyojlarida qo'llay oladigan holda tayyorlash kerak. Buning uchun esa o'qitish jarayonini innovatsion yondashuvga asoslangan holda tashkil etish kerak.

Pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion yondashuv - bu an'anaviy yondashuv asosida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni mazmuni, shakllari va metodlarining hamda ta'lim maqsadi va natijalarning o'zgarishidir, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining yangilanishidir (1-rasm). Demak, innovatsion yondashuvda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni butunlay o'zgaradi va takomillashadi.



1-rasm. Pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda an'anaviy va innovatsion yondashuv

Pedagogika kolleji o'quvchilarida innovatsion yondashuvga asoslangan ta'lim asosida kreativ fikrlash, faol shaxs sifatida o'z o'rniga ega bo'lish, ijodkorlik, dunyoqarashining kengligi bilan suhbatdoshni jalb qila olish, kommunikativ kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z o'rnida oqilona foydalana olish, ongli ravishda bajarayotgan ishlarini to'g'ri tahlil qila olish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

Dissertatsiyaning “**Pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni va metodikasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida innovatsion yondashuv asosida pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish tizimining mantiqiy funksiyalar tuzilmasi va mazmuni, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish modeli hamda metodikasi keltirilgan.

Innovatsion yondashuv asosida pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish tarbiyachilik faoliyatiga tayyorgarlik jarayonida asosiy o'rinni egallaydi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki innovatsion yondashuv asosidagi ta'lim-tarbiyada modellashtirish bir qancha tadqiqot ishlarining samaradorligi, ob'ektiv afzalliklari, o'quv maqsadlariga, talablar hamda yondashuvlariga muvofiqligi, ta'lim oluvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatib berdi.

Biz tomondan innovatsion yondashuv asosida pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi (2-rasm). Ushbu model maqsadli, mazmunli, jarayonli va baholash bosqichlaridan iborat.

Innovatsion yondashuvdan foydalangan holda pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini belgilab beruvchi muhim qoidalar sifatida biz motivatsion - maqsadli, kompetentli hamda kreativ yondashuvlarga asoslandik.

Maqsadli bosqich – Davlat standarti, malaka talablari va o'quvchilarda maxsus fanlar negizida hamda treninglar, master klaslar orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha qo'yiladigan maqsadni o'z ichiga oladi.


Mazmunli bosqichda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning vazifalari, tamoyillari, yondashuvlari, pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan.

Jarayonli bosqichda biz tomondan ishlab chiqilgan 24 soatlik maxsus kurs o'quv dasturi bo'yicha o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqqan holda pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasi innovatsion yondashuv asosida rivojlantiruvchi treninglar, master klaslar hamda o'z-o'zini rivojlantirish hisobiga ta'minlanadi. Shunga ko'ra, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatini ta'minlovchi quyidagi interfaol metodlar nazariy jihatdan asoslandi va tajriba asosida amaliyot sinovidan o'tkazildi.

“Disput” interaktiv ta'lim metodi kommunikativ kompetensiyaning komponentlarini rivojlantirishga imkon beradigan metod bo'lib, bu fikrlar to'qnashuvidan iborat. Bu metodning maqsadi – munosabatlarni, mulohazalarni, baholarni shakllantirish. O'quvchilar bu metod yordamida “Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodlari” fanida amaliy mashg'ulot topshiriqlarini bajarish mobaynida o'z qarashlarini isbotlagan holda himoya qilishni, ularga boshqa odamlarni zamonaviy usullar bilan ishonitirishga o'rganadi, yolg'on nuqtai nazarni inkor qilishni, etika me'yorlari va talablardan voz kechmaslikni o'rganadi.

“Pedagogical coaching” interaktiv ta'lim metodi kommunikativ faoliyatda pedagogika kolleji o'quvchilarining motivatsiyasini vujudga keltirishga, ushbu jarayon qoniqish hosil qiladigan darajada muloqot maqsadlarini shakllantirishga va ularga erishishga yordam beradigan muhitni yaratish (suhbat va maqsadga yo'naltirilgan xulq-atvor yordamida) metodi.



2-rasm. Pedagogika kolleji o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning tuzilmaviy-metodik modeli

Bunda o‘quvchilar berilgan topshiriqlarni guruh bilan bajarish jarayonida eng samarali natijani olish uchun birgalikdagi ijtimoiy, shaxsiy va ijodiy salohiyatni amalga oshirishga yordam beradigan tizimda ishlaydi.


“Coaching” metodi – maxsus maqsadlarda ko‘rsatmalar berish, kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan shaxsda shaxsiy salohiyat, o‘z-o‘zini anglash va mas’uliyat hissini rivojlantirishga yordam beradigan texnologiya hisoblanadi.

“Suggestiya” – bu psixologik jarayon bo‘lib, uning yordamida odam o‘zining yoki boshqa odamning orzu qilgan fikrlari, his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlarini ongli harakatlarga tayanmasdan, ularni refleks sifatida qo‘zg‘atishi mumkin bo‘lgan ogohlantirishlarni taqdim etish orqali boshqaradi. Bu auditoriyaga verbal va noverbal emotsional bezalgan ta’sir usuli. Ishontirishning maqsadi o‘quvchilarda muayyan emotsional holatni yaratish hisoblanadi. Bu metod harakatga undashda ham qo‘llaniladi. Ishontirish metodi imkoniyatlariga ortiqcha baho qo‘yish mumkin emas. Ishontirish metodi bilan birga ta’sirning boshqa usullaridan ham foydalanish zarur, masalan, argumentlashni, isbotni kuchaytirish kerak. Aks holda ishontirishdan foydalanish o‘quvchilarda qayta reaksiyani tug‘dirishi mumkin.

“Rasmlarga nom berish” innovatsion trening mashqida har bir rasm bir marotaba taqdim etiladi va bola vaqt bosimisiz rasmlarni birin-ketin aniq nomlashi kerak bo‘ladi. Bu mashqni amalga oshirishdan maqsad tanish bo‘lgan va tasavvurida qayta tiklanadigan tasviri namoyish etilayotgan narsalarni tezkorlik bilan adashmasdan nomini topish va so‘z boyligini oshirishga qaratilgan.

“So‘zlar va rasmlarni moslashtirish” mashqida predmetlarning nomlari aralash holatda talaffuz qilinadi, diqqat bilan eshitish malakasini oshirish orqali so‘zlarni qaysi rasmga to‘g‘ri kelishini tezkorlik bilan aniq aytib bera olish ko‘nikmasi rivojlantiriladi.

Biz tomondan pedagogika kolleji o‘quvchilarining o‘z-o‘zining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan trening mashqlari bilan birgalikda trening mashg‘ulotlari joylangan “Annotatsiya”, “Nazariy material”, “Glossariy”, “Topshiriqlar matnlari”, “Topshiriqlarni bajarish”, “Baholash jurnali”, “Ma’lumotlar manbasi” modullarini o‘z ichiga olgan elektron o‘quv kursi yaratilgan (3-rasm) va amalda joriy etilgan.



3-rasm. Pedagogika kolleji o`quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini mustaqil rivojlantirishga imkon beruvchi elektron o`quv kursi
Baholash bosqichiga o`quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlanganlik mezonlari va darajalari kiritilgan.

Tadqiqotimizda biz tomondan ishlab chiqilgan model va metodika bo'yicha o`quvchilarning kommunikativ kompetensiyalari muayyan darajada rivojlanganligi asoslandi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogika kolleji o`quvchilarining kommunikativ kompetensiyasi rivojlanganligini aniqlash bo'yicha tajriba-sinov ishlari tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida pedagogik tajriba-sinovni tashkil etish, o`tkazish va uning tahliliy natijalari keltirilgan.

Tajriba-sinov ishlari 2020-2022-yillarda Baxmal 2-son pedagogika kolleji, Toshkent pedagogika kolleji hamda Namangan pedagogika kollejlari olib borilgan aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakuniy bosqichlardan iborat bo'ldi. Pedagogik tajriba-sinov ishlarida o`qituvchilar hamda 406 nafar o`quvchilar ishtirok etdilar.

Pedagogik tajriba-sinovning asosiy maqsadi, pedagogika kolleji o`quvchilari kommunikativ kompetensiyasini maxsus fanlarni interaktiv metod hamda treninglar asosida o`qitish orqali rivojlantirishdan iborat bo'ldi.

Pedagogika kolleji o`quvchilarining faoliyatini kuzatish va tahlil qilish natijasida o`quvchilar uchun muhim bo'lgan kommunikativ kompetensiya negizidagi bir qancha sifatlar mavjud ekanligi, lekin o`quvchilar bilan innovatsion ta'lim muhiti sharoitida kommunikativ kompetensiyaning yetarlicha qamrab oluvchi sifatlari rivojlanmaganligi ma'lum bo'ldi. Shu jihatlarni hisobga olib ishlab chiqilgan maxsus

dastur bo'yicha pedagogika kollejlarning maxsus fanlarni o'qitish jarayonida interaktiv metod hamda trening mashqlari olib borildi. Biz tomondan ishlab chiqilgan maxsus kurs dasturi bo'yicha mashg'ulotlarda "disput", "pedagogical coaching", "suggestiya", "situation analysis" kabi interaktiv metodlar, "rasmlarga nom berish", "so'zlar va rasmlarni moslashtirish" kabi trening mashqlaridan samarali foydalanildi. Bunda kommunikativ kompetensiyani oshirish bosqichlari, trening mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishda mavjud o'quv-uslubiy majmua, dastur asosida yaratilgan o'quv-metodik ta'minot va uslubiy qo'llanma orqali samarali yetkazib berish kerakligi asosiy maqsad qilib qo'yildi. Pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha o'quv yiliga mo'ljallangan innovatsion master-trening maxsus o'quv dasturi ishlab chiqilib, unda mashg'ulotlarni o'tkazish davriyligi haftada 4 soat qilib belgilandi.

O'qitish tajriba guruhi deb nomlangan guruhda interaktiv metodlar va treninglar asosida ta'lim berishdan iborat bo'lib, u quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi.

I qadam: Pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini aniqlash: diagnostika, test sinov; kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish yo'llarini aniqlash.

II qadam: Pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari: interaktiv metodlar va treninglar orqali.

Izlanishlar tajribasini o'rganish usullari: pedagogika kolleji o'quvchilari bilan suhbat; ishtirokchilardan olinadigan so'rovnoma; tajribaviy o'qitish.

Ta'lim bosqichini o'rganish usullari: tajribaviy o'qitish, kuzatuv, so'rovnoma; anketa va test ularning elementar tahlili hamda natijalarni statistik qayta ishlash amalga oshirildi; o'qituvchilarning fikr-mulohazalarini o'rganish.

Kognitiv, faoliyatli va kreativ mezonlar asosida o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalar rivojlanganlik darajasi aniqlandi.

Har bir daraja bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqorida tilga olingan mezonlar asosida foiz hisobida tahlil qilindi (1-jadval)


1-jadval

Toshkent, Namangan, Baxmal pedagogika kollejlari o'quvchilarining tajriba sinovi boshida va tajriba oxirida kommunikativ kompetensiyasi rivojlanganlik darajasi

Ta'lim muassasalar	O'zlashtirish ko'rsatkichi	Tajriba-sinov guruhi				Nazorat guruhi			
		Tajriba boshida 207 nafar o'quvchi		Tajriba oxirida 207 nafar o'quvchi		Tajriba boshida 199 nafar o'quvchi		Tajriba oxirida 199 nafar o'quvchi	
		soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
Toshkent, Baxmal, Namangan	Yuqori	39	18,8%	63	30.4%	36	18,1%	39	19.6%
	O'rta	71	34,3%	112	54.1%	71	35,7%	73	36.7%
	Past	97	46,9%	32	15.5%	92	46.2%	87	43.7%

Jami:	207	100%	207	100%	199	100%	199	100%
--------------	------------	-------------	------------	-------------	------------	-------------	------------	-------------

Tajriba-sinov natijalari



4-rasm. Tajriba-sinov va nazorat guruhlari o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyasi rivojlanganlik darajalari diagrammasi

Tajriba sinov ishlarini tekshirishda qo'llanilgan Styudent matematik-statistikasining miqdoriy mezon ko'rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Miqdoriy mezonlar ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	Tajriba boshida		Tajriba oxirida	
		Tajriba-sinov guruhi m=207	Nazorat guruhi n=199	Tajriba-sinov guruhi m=207	Nazorat guruhi n=199
1	O'rtacha arifmetik qiymat	1.78	1.75	2.15	1.76
2	Samaradorlik ko'rsatkichi	1,005		1,129	
3	O'rtacha qiymat ishonch oralig'i	[1.68;1.81]	[1.63;1.79]	[2.05: 2.25]	[1.65;1.87]
4	O'rtacha qiymat standart xatolik	0.6784	0.6512	0,7582	0,6606
5	Styudent statistikasi (T)	0.37(0.37<1,96)		5,33(5,33 >1,96)	
6	Ko'rsatkichlar xulosasi	H ₀ gipoteza qabul qilinadi		H ₁ gipoteza qabul qilinadi	

Tajriba-sinov maydoni etib belgilangan pedagogika kollejlarda o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari yakunida tajriba guruhlari o'quvchilarining "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodlari" maxsus fanini o'zlashtirish ko'rsatkichlari nazorat guruhlariga nisbatan 13 % ga yuqori ekanligi matematik-statistik jihatdan isbotlandi.

Olingan natijalar biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodik modelni hamda takomillashtirilgan metodikani samarali ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot davomida qilingan ilmiy izlanishlar, taqdim etilgan metodik ishlanmalar, o'quv qo'llanma, ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot va tavsiyalarni umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Pedagogik-psixologik o'rganishlar, uslubiy-didaktik shart-sharoitlar asosida pedagogika kolleji o'quvchilarining shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish va kommunikativ-nutqiy faoliyatga tayyorlashda metodologik yondashuvlar va didaktik tamoyillarini rivojlantirish zarurligi, kasbiy ta'lim sifatini oshiruvchi axborotli-kommunikatsion mobil muhit tashkillashtirish hamda o'quv jarayonining axborot-metodik ta'minotini mazmunan takomillashtirish o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun muhimligi asoslandi hamda nazariy xususiyatlari aniqlandi.

2. Pedagogika kolleji o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning mantiqiy-funksional tuzulmasiga asoslangan tuzilmaviy-metodik modeli komponentlarni o'z ichiga olgan jarayonda o'quvchilarning kasbiy faoliyat subyekti sifatida faolligini oshirishni, turli xil vaziyatlarda kasbiy, ijtimoiy, kommunikativ me'yorlarni hamda rolli xulqni ta'minlovchi, kommunikativ kompetensiyalar rivojlanishiga yo'naltirilgan pedagogik strategiyani ishlab chiqish hamda kasbiy ta'lim sub'ektlarining telekommunikatsion o'zaro ta'sir klasterini umumlashtirish asosida takomillashtirilgan.

3. Pedagogika kolleji o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda innovatsion metodlar va treninglar ("disput", "pedagogical coaching", "suggestiya", "situation analysis", "rasmlarga nom bering", "so'zlar va rasmlarni moslashtirish")ning imkoniyatlari aniqlandi va muloqot jarayonidagi masalalarni yechish asosida dialog, o'quv, ishbilarmonlik va rolli o'yinlar, aniq vaziyatlarni tahlil qilish shakllarida o'quvchilarning o'zaro bir-biri bilan, o'qituvchi bilan, muloqotdagi vaziyatlar bilan faol mahsuldor o'zaro munosabat usullari sifatida qarab chiqildi.

4. Innovatsion yondashuv imkoniyatlaridan foydalanish orqali nutqini o'stirish hamda "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodlari" fanining o'quv metodik ta'minotini optimallashtirish asosida kommunikativ xarakterdagi mashqlar tizimi ishlab chiqildi va o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasi mazmuni takomillashtirildi.

5. Innovatsion yondashuvda pedagogika kolleji o'quvchilari kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan trening mashg'ulotlarining samarali imkoniyatlarini o'quv mashg'ulotlari hamda mustaqil ta'limga joriy etish hisobiga motivatsion-maqсадli (muammolilik, qiziqtirish, ijodiy va amaliy yo'nalganlik) omillari aniqlandi.

6. Pedagogika kolleji o'quvchilarida kommunikativ kompetensiya rivojlanganligini aniqlash ko'rsatkichlari va mezonini ishlab chiqildi hamda ular asosida tajriba-sinov ishlari o'tkazilib, olingan natijalar taklif etilgan metodika va

o'quv metodik ta'minot samarali ekanligini, o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyaning rivojlanish darajalari oshganligini ko'rsatdi.

Biz tomondan tadqiqotimiz doirasida pedagogika kollejlari o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan bir qator tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Pedagogika kollejlari o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni takomillashtirishga xizmat qiluvchi interaktiv metodlar va treninglarni samarali tashkil etish va o'tkazish bo'yicha o'quv metodik qo'llanmalar yaratish hamda amaliyotga joriy qilish;

2. Pedagogika kolleji o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus kurs dasturini pedagogika kollejlariga joriy etish;

3. O'quvchilar o'z-o'zining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan elektron o'quv kursidan amalda foydalanish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Ped48.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИННОВАЦИЙ, ПЕРЕПОДГОТОВКИ И ПОВЫШЕНИИ
КВАЛИФИКАЦИИ РУКОВОДЯЩИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

ДЖИЗАКСКИЙ ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

АЗИЗОВ ОБИД ЭРГАШЖАНОВИЧ

**РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОЛЛЕДЖЕЙ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО
ПОДХОДА**

13.00.05 – Теория и методика профессионального образования

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2023

Тема докторской диссертации (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2021.1.PhD/Ped2348.

Диссертация выполнена в Джизакском политехническом институте.

Автореферат диссертации выполнен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу (www.ipitvet.uz) и информационном образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Олимов Кахрамон Танзилович
доктор педагогических наук, профессор

Рецензенты:

Химматалиев Дустназар Омонович
доктор педагогических наук, профессор

Алимов Нормурод Носирович
кандидат педагогических наук, доцент

Ведущая организация:

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2023 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 при Институте педагогических инноваций, переподготовки и повышении квалификации руководящих и педагогических кадров профессионального образования. (Адрес: 100095, город Ташкент, Алмазарский район, улица Зиё, 76 дом). Тел.: (99871) 246-92-17; факс: (99871) 246-90-37; E-mail: pedagogikinnovasiyalar@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института педагогических инноваций, переподготовки и повышении квалификации руководящих и педагогических кадров профессионального образования (зарегистрирована за № ____). (Адрес: 100095, город Ташкент, Алмазарский район, улица Зиё, 76 дом). Тел.: (99871) 246-92-17; факс: (99871) 246-92-17).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2023 года.
(реестр протокола рассылки № _____ от _____ 2023 года).

Р.Х.Джураев

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.п.н. академик

С.Ю.Ашурова

Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, к.п.н., профессор

Х.Ш.Кадиров

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.п.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Глобальные изменения, происходящие в мире в социально-экономической и научно-технической сферах, требуют совершенствования системы подготовки кадров на основе компетентностных требований. На Международном симпозиуме «Ключевые компетенции для Европы» Совета Европы в Берне подчеркивается «эффективное использование коммуникативных и письменных навыков в конкретных ситуациях» и «что люди, не овладевшие навыками, связанными с развитием устной и письменной коммуникации, особенно важными для работы и общественной жизни, подвержены риску социального исключения». В том же контексте общения была принята группа важных компетенций, таких как владение несколькими языками. Сегодня особое внимание уделяется комплексному использованию традиционных и инновационных методов обучения при формировании и оценке важных компетенций будущих специалистов. Поэтому поиск практических решений проблем формирования профессиональных и личностных компетенций обучающихся остается актуальным.

На основе передового международного опыта, в престижных научно-исследовательских центрах развитых стран, таких как США, Англия, Германия, Россия, Южная Корея значительные практические результаты достигнуты в создании научно обоснованной методической системы проектирования процесса профессионального образования на основе инновационного подхода. Соответственно, большое значение имеет изменение существующей образовательной парадигмы и развитие навыков применения полученных теоретических знаний на практике при подготовке конкурентоспособных и квалифицированных выпускников. По этой причине важно совершенствовать коммуникативную компетентность учащихся в поиске и реализации решений профессиональных задач в их будущей деятельности. С этой точки зрения считается необходимым уделять особое внимание формированию культуры речи при эффективной организации системы подготовки специалистов, которые являются активными творчески мыслящими, любознательными, самостоятельно находят необходимую информацию и умеют ею пользоваться в своей практической деятельности.

Основным направлением стратегических задач в сфере образования в нашей стране является четкое определение перспектив развития, необходимых для интересов общества и самостоятельно мыслящей личности. В качестве приоритетной задачи рассматривается «Совершенствование деятельности всех звеньев системы образования и обучения исходя из требований сегодняшнего времени».¹ Это порождает необходимость модернизации системы подготовки высококвалифицированных выпускников педагогических колледжей и развития ее инновационных педагогических основ. В методике обучения, основанной на

¹ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28.01.2022 г. «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» <https://lex.uz/docs/5841063>

инновационном подходе, проект учебного процесса выпускника, его содержание, технологическая структура и существующие условия направлены на личность учащегося, его познавательную и творческую деятельность.

